

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATB davlat xaridlari jarayonlari
va shartnomaviy munosabatlarning bajarilishi yuzasidan
o‘tkazilgan monitoring natijalari bo‘yicha
JAMOATCHILIK UCHUN AXBOROT**

(2026-yilning birinchi yarim yillik yakuni bo‘yicha)

Ushbu axborot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta’minlash bo‘yicha navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 259-sonli farmoni 3-ilovasining 16-bandiga asosan, “O‘zsanoatqurilishbank” ATB tizimida davlat xaridlari jarayonlari va shartnomaviy munosabatlarning bajarilishi yuzasidan muassasa Ichki audit departamenti tomonidan o‘tkazilgan monitoring natijalari jamoatchilik e’tiboriga havola etiladi.

Monitoring 2026-yilning 1-yanvaridan 30-iyunigacha bo‘lgan davrda amalga oshirilgan davlat xaridlari jarayonlari va shartnomaviy munosabatlarning bajarilishini qamrab olgan. Tanlov usulida xarid turlari bo‘yicha eng yuqori qiymatli 111 ta xarid o‘rganilgan.

Asosiy statistik ko‘rsatkichlar

Ko‘rsatkich	Qiymat	Izoh
Monitoring davri	2026-yil 1-yanvar – 30- iyun	PF-259-son Farmon ijrosi doirasida
Davrda amalga oshirilgan umumiy xaridlar soni	1 484 ta	
Davrda amalga oshirilgan umumiy xaridlar hajmi	512,3 mlrd so‘m	
Raqobatli usullar ulushi	54,6 %	
To‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar ulushi	45,4 %	
Monitoring uchun tanlab olingan xaridlar soni	111 ta	Xarid turlari bo‘yicha eng yuqori qiymatdan tanlab olingan
Monitoring uchun qamrab olgan umumiy summa	250,5 mlrd so‘m	
Aniqlangan holatlar soni	16 ta	
Muddati o‘tgan debitorlik qarzdorligi	1,1 mlrd so‘m	

Ko'rsatkich	Qiymat	Izoh
Tavsiyalar/chora-tadbirlar soni (umumiy)	2	
Bajarilish jarayonidagi tavsiyalar soni	2	

Monitoring natijalariga ko'ra, Bankda davlat xaridlari jarayonlari hamda shartnomaviy munosabatlarni tashkil etish bo'yicha asosiy mexanizmlar amalda qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ayrim jarayonlarni yanada takomillashtirish hamda ichki nazorat samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.